

## Akademik Mirziyod Mirsaidov Guliston davlat universitetida uchrashuv o'tkazdi

Bu uchrashuvda iqtidorli bakalavriat talabalari, magistrlar, doktorantlar, Universitet rektori prof. M.T.Xodjiev, ilmiy ishlar bo'yicha prorektor A. Sulaymonov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, universitetning yetakchi professor va dotsentlari qatnashdilar. Bu uchrashuvda TIQXMMI professori T.Mavlonov ham qatnashdi.

Uchrashuvni Universitet rektori prof. M.T.Xodjiev kirish so'zi bilan ochib, akademik M.Mirsaidovga so'z berdi.

M.Mirsaidov o'z so'zida yurtboshimizning fanda erishilgan yutuqlarning amaliyotga tadbiiq qilinishiga katta e'tibor berayotganligiga, yuqori natijalarga erishgan ilmiy xodimlar albatta kelgusida taqdirlanishiga hozirgi kunda Prezidentimiz tomonidan to'la imkoniyat yaratilayotganligini aytib o'tdi.

Hurmatli Prezidentimiz ilmdagi eng katta ilmiy natijalarni ilmiy tadqiqot va oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan yoshlardan kutayotganligini va bu bajarilayotgan ilmiy ishlar, innovatsiya g'oyalari, yangi texnologiyalar va ularning tadbiiq'i bilan yakunlanishi haqida ham M.Mirsaidov gapirib o'tdi.

Yoshlar va univesitet xodimlari M.Mirsaidovga ko'p savollar berdilar.

Bu savollarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat bo'ldi:

Oxirgi davrlarda mexanika fanida qanday yutuqlarga erishildi, sizning ilmiy ishingizning mohiyati nimadan iborat, ilmiy ishlaringizning fizika va matematika fanlari bilan qanday bog'langan joylari bor, O'zbekistonda atom elektr stansiyasi qaerda quriladi, shu stansiyaning bizda qurish shartmi, institutingizda sho'rlanishga qarshi qanday ishlar olib borilayapti, nima uchun Sirdaryo viloyatida drenaj tizimi ishlamayapti, energiya olish uchun shamoldan foydalansak bo'lmaydimi, suv tanqisligi muammosi bizning davlatimizda yechilishi uchun qanday ishlar olib borilayapti degan savollar bilan birga boshqa fizikaga, matematikaga, energetikaga tegishli bir qancha savollarni berdilar.

Sizni Prezidentimiz akademik qilib sayladi, siz bu yutuqlarga qanday erishganligingiz haqida gapirib bersangiz degan va boshqa bir qancha shunga o'xshash savollar xam berildi.

Berilgan barcha savollarga M.Mirsaidov to'liq javob qaytarishga harakat qildi.

Shu bilan birga M.Mirsaidov o'z so'zida ilmda yuqori natijalarga erishish uchun yoshlarimiz tinmasdan mehnat qilib, yaxshi o'qishlari va har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lish uchun esa chet tillarini yaxshi bilishi va kitoblarni ko'p o'qishga harakat qilishlari kerak deb ta'kidladi.

M.Mirsaidov kelajakda davlatimiz tomonidan qo'yilayotgan dolzarb muammolarni yechish uchun bu universitetda yetarli sharoit borligini, bu universitet bilan O'zR FA va TIQXMMI o'rtasidagi integratsiyani rivojlantirish kerakligini aytib o'tdi.

Bu suhbatlardan keyin yoshlarda ishonch va ko'tarinki ruh paydo bo'lganligini universitet rektori prof. M.T.Xodjiev o'z so'zida aytib, Prezidentimiz ishonchining universitetimiz yoshlari tomonidan albatta oqlanishiga ishonch bildirdi. Shu bilan birga, prof. M.T.Xodjiev o'z so'zida institutning ilmiy salohiyatini yanada ko'tarish maqsadida, yosh oliy malakali kadrlarni tayorlashda TIQXMMI professorlari bu universitetga kelib ma'ruzalar o'qisa va sohalari yaqin bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlashda ishtirok etishsa juda ulug' ish bo'lardi deb fikr bildirdi.

Bu fikrni professorlar M.Mirsaidov va T.Mavlonov qo'llab-quvvatlab, kelgusida qilinadigan ishlarga omad tilagan holda o'zining qimmatli maslahatlarini berishdi.

Universitet rektori Xodjiev M.T., institut xodimlari va iqtidorli yoshlari ilm-fanga katta e'tibor qaratayotganligi uchun Prezidentimizga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdilar.

Xayrlashuv oldidan esdalik uchun uchrashuvda qatnashgan barcha yoshlar va Guliston davlat universiteti xodimlari bilan rasmga tushildi.

Uchrashuv tugagandan keyin ham iqtidorli talaba va magistrning M.Mirsaidovga savollari hech tugamadi.

Bu universitetda o'quv ishlariga, ilm - fanga e'tibor berilishi bilan birga, obodonlashtirish ishlari ham juda yuqori darajada amalga oshirilgan ekan. Universitetga borgan har bir mehmon bu ishlarni ko'rib, bu dargohdan juda xursand bo'lib qaytishiga ishonch hosil qildik. Biz ham xuddi shunday xush kayfiyat bilan xayirlashib, bu olib borilayotgan ishlar uchun universitet rektori prof. M.T.Xodjievga raxmatlar aytib qaytdik.



**O'MB Xodjayev D.**